

TERMITLAR TURKIMINING HAYOT KECHIRISHI VA ZARARI

Ro'ziqu洛ov Davlatbek

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Miraliyeva Xabiba

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Latiboyeva Dilfuza

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Toshmuradova Fotima

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada termilalar turkumini hayot kechirishi hamda turar joylarga, mebel, libos va oyoq kiyimlarga yaroqsiz holga kelishi, turli yovvoyi o'simliklarga, daraxt va ekinlarning qurishi, sug'orish kanallariga, jiddiy zarar keltiradi. Termilalar tomonidan zararlanuvchi matreallar va ularning nomlari qarshi kurash choralari haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: *termite, zararkunanda, selluloza, yog'och.*

Kirish

Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti huzuridagi Respublika termilarga qarshi kurashish markazi direktori Qahramon Rustamovning ta'kidlashicha, termilalar O'zbekiston hududida ilk bor 1858 yili Termiz atrofida aniqlanib, fanga kiritilgan.

Termilalar koloniyasi yer tagida yashirin holatda hayot kechiradi. Tuproqda va yer yuzasida, binolarning devorlari orasi, tomlarida, daraxtlarda uyalar hosil qiladi. Tropik mamlakatlarda uchraydigan termilalar yer yuzasidan balandligi 5-7 va hattoki 15 metrgacha bo'lgan gumbazlar yasaydi.

O'zbekiston hududida *Anacanthotermes* avlodiga mansub 2 ta tur: turkiston va katta kaspiy orti (*A. turkestanicus* Jacobs., *A. ahngerianus* Jacobs.) termilari tarqalgan bo'lib, ayniqsa keyingi 20-30 yil davomida Respublikamizning dayarli barcha viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi xonardonlari, qishloq hujaligi binolari va hatto tarixiy obidalarga ham ular katta zarar yetkazmoqda.

Anacanthotermes avlodiga mansub termilarning uyalari yer ostida berkitilgan bo'lib, murakkab sistemali, gorizontal va vertikal kesishgan tirqish, kamera va yo'laklardan iborat bo'ladi. Ular bino devorlari, tomlarida ham kameralar hosil qilib imoratning qishda issiq va yozda salqin joylariga yig'iladi.

Termilalar uchish oldidan uya tepasidan chiqish teshikchalarini ochib, undan qanotli zotlar chiqadi. Yerga qo'ngandan so'ng qanotlarini sindiradi va juft-juft (erkak, urg'ochi) termilalar 3-5 sm chuqurlikda uya kamerasini qura boshlaydi. Termilalar uchib chiqish vaqtida shamol oqimiga duch kelsa, ular uzoq masofalarga tarqalishi mumkin. Aholi yashaydigan punktlarda termilalar turar joy va binolarga joylashib,



ularning yog‘och qismlarini kemiradi. Bundan tashqari, ular qog‘oz, kitoblar, kiyimlar va h.k. bilan ham oziqlanadi. Termitlar odatda yer betiga chiqmaydilar va hech qachon ochiq joyda oziqlanmaydilar. Ammo, ochiq holda ovqat yig‘ish shamolsiz, iliq kunlarda, (bulutsiz kunlari – ertalab va kechqurun, bulutli kunlari esa kunduzi) amalga oshirishi bundan istesnodir. Ular tuproq zarrachalarini bir-biriga yopishtirib yupqa loy-suvoq hosil qiladilar va yeydigan oziqalarining ustini ham loy-parda bilan o‘raydilar. O‘simplik poyasi g‘ilof loy-suvoq bilan qoplanadi, so‘ngra bu g‘ilof ichidagi o‘simplik bilan termitlar oziqlanadi.



1-rasm Termittar yog‘ochdagи zarari

Xulosa. Termitlarning asosiy ozuqasi sellyuloza hisoblanadi. Mazkur modda yog‘och, karton kabi qurilish va uy-joy materiallarida ko‘p bo‘lgani uchun termitlar shularni yeb, kun kechiradi. Bu zararkunanda azaldan agrotexnik ishlov berilmaydigan joylar: cho‘l va adirlarda tabiiy ko‘paygan. Vaqt o‘tishi bilan odamlar saksovul, yantoq kabi o‘simpliklardan yoqilg‘i sifatida o‘z xonadonida foydalanganligi sababli termitlar aholi uy-joyiga tarqala boshlagan shuning uchun eski yog‘och matreallarini qurilishlarda ishlatmagan ma’qul.

Adabiyotlar:

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. Sh.T. Xo‘jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo‘jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2019.
3. Sulaymonov B.A., Anorbayev A.R. va b. “Umumiy entomologiya va zoologiya”. Toshkent -2019, 424 bet
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/29/termit/>